



“TASDIQLAYMAN”

Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori

G.I.Muxamedov

2024-yil “29” - 08

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti iqtidorli talabalarini rag‘batlantirish
maqsadida o‘tkaziladigan “Iqtidor” tanlovi**

NIZOMI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashining
2024-yil “29” - 08 dagi 1 -sonli bayonnomasi
bilan ma’qullangan.*

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti iqtidorli talabalarini rag‘batlantirish
maqsadida o‘tkaziladigan “Iqtidor” tanlovi
NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom Chirchiq davlat pedagogika universiteti (keyingi o‘rinlarda – universitet) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarini rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladigan “Iqtidor” (keying o‘rinlarda – tanlov) tanlovini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Mazkur tanlov universitetda tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularni moddiy-ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida har o‘quv yilida bir marotaba o‘tkaziladi.

1.3. Tanlovda universitetning kunduzgi ta’lim shakli to‘lov shartnoma asosida tahsil olayotgan, o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan qat’iy nazar, bakalavriat 3-bosqich (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda nomli Davlat stipendiyalari sovrindorlari hamda davlat granti asosida tahsil olayotganlardan tashqari) talabalari ishtirok etishi mumkin.

1.4. Tanlov 2 bosqichda (1-saralash bosqichi, 2-yakuniy bosqich) tashkil etiladi.

1.5. Ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi 4 ta nomdagi mukofot joriy etiladi:

- *“Innovator” nominatsiyasi (aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishi uchun);*
- *“Tamaddun” nominatsiyasi (pedagogika va gumanitar fanlar yo‘nalishi uchun);*
- *“Iftixor” nominatsiyasi (filologiya fanlari yo‘nalishi uchun);*
- *“E’tirof” nominatsiyasi (amaliy fanlar va turizm yo‘nalishi uchun).*

1.6. Nizomning 1.5.-bandida ko‘rsatilgan rag‘bat yo‘nalishlarining tegishli mutaxassislik klassifikatorlari 1-ilovaga muvofiq ajratiladi. Har bir yo‘nalish talabalari sonidan kelib chiqqan holda 200 nafar talaba uchun 1 donadan kvota taqsimlanadi.

2-bob. Tanlovlarni o‘tkazish

2.1. Mazkur tanlovning 1-bosqichi har o‘quv yili 20-sentabrgacha, 2-bosqichi esa 25-sentabrgacha bo‘lgan muddatda o‘tkaziladi.

2.2. Mukofotlarni tayinlash uchun nomzodlar mazkur Nizomning 1.3.-bandida ko‘rsatilgan talablar asosida amalga oshiriladi.

2.3. Fakultetlar tanlovning 1-bosqichini o‘tkazish uchun va talabgorlarni keyingi bosqichga o‘tkazish uchun javobgar hisoblanadi.

2.4. Tanlovning 1-bosqichi masofaviy tarzda o‘tkaziladi. Bunda maxsus dastur yoki platforma orqali nomzodlar quyidagilar bo‘yicha sinovdan o‘tadilar va tegishli sertifikatini hujjatlar platformasiga joylaydilar:

- *IQ darajani aniqlash bo‘yicha test (20 ball);*

- *Tarix fani bo'yicha test (15 ball);*
- *Chet tillari bo'yicha test (15 ball).*

2.5. Tanlovning 1-bosqich natijalari umumiy lashtirilib, ishchi guruh xulosasiga asosan talabgor o'tish bali bilan yakuniy bosqichga yo'llanma oladi.

2.6. Yakuniy bosqichga yo'llanma olgan talabalar quyidagi asoslarni maxsus platformaga joylaydi:

- ma'lumotnoma (obyektivka);
- ilmiy ishlar ro'yxati va ularning asoslari;
- erishgan yutuqlari (barcha turdagi);
- fakultet tavsiyanomasi va ilmiy rahbar xulosasi.

2.7. Yakuniy bosqichga tavsiya etilgan talabalar uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sinov imtihonlari tashkil etiladi:

- *O'zbekiston tarixini bilish darajasini aniqlash;*
- *Chet tillarini (ingliz, nemis) bilish darajasini aniqlash (til bilish sertifikatiga ega talabalar ham ishtirok etadi. Xorijiy til yo'nalishlarida tahsil oluvchilar ikkinchi chet tilidan imtihon topshiradi).*

2.8. Sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarning hujjatlari hamda imtihon natijalari rektor buyrug'i asosida tuzilgan ishchi guruh tomonidan o'rganiladi va ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil fikrlash imkoniyatlari, jumladan, yakka mualliflikdagi ilmiy tadqiqot ishlariga, shuningdek, kamida viloyat darajasida erishilgan yutuqlariga ustuvorlik beriladi. Ularning taqdimoti ko'rib chiqiladi. Umumiy baholash mezonini 2-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi. Tavsiya etilgan nomzodlar ovoz berish yo'li orqali kvotalar doirasida aniqlanadi.

2.9. Yakuniy bosqichning sinov imtihonlari maxsus dastur yoki platforma orqali belgilangan muddatda tashkil etiladi. Eng yuqori ball to'plagan har bir yo'nalish bo'yicha 5 (besh) nafar nomzodning g'olib bo'lgandan keyingi amalga oshiradigan chora-tadbirlar rejasi ekspertlar jamoasiga taqdimot shaklida taqdim etiladi.

3-bob. Mukofotlarni tayinlash va rag'batlantirish

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga to'lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 59-son Qarorining 7-bob 20-bandini universitet rektorining talabalarga mukofotlarni tayinlash va to'lash buyrug'i uchun asos hisoblanadi.

3.2. Mukofotlar har o'quv yilida bir marotaba talabalar uchun belgilangan bazaviy stipendiyaning 10 (o'n) baravarigacha miqdorda rag'batlantiriladi.

3.3. Tanlovda g'olib bo'lgan talabalarga Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori tomonidan tasdiqlangan quyidagi guvohnomalar va ko'krak nishoni tantanali vaziyatda topshiriladi.

- *"Innovator"* nominatsiyasi g'olibi;
- *"Tamaddun"* nominatsiyasi g'olibi;
- *"Iftixor"* nominatsiyasi g'olibi;
- *"E'tirof"* nominatsiyasi g'olibi;

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

4.1. Tanlov shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda Nizom qayta tasdiqlanishi mumkin.

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti iqtidorli talabalarini rag'batlantirish maqsadida
o'tkaziladigan "Iqtidor" tanlovining mutaxassislik
KLASSIFIKATORLARI**

1. "Innovator" nominatsiyasi (aniq va tabiiy fanlar yo'nalishi)

№	Yo'nalish shifri	Ta'lim yo'nalishi nomi
1	60110600	Matematika va informatika
2	60110700	Fizika va astronomiya
3	60110800	Kimyo
4	60110900	Biologiya
5	60111000	Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
6	60112500	Maktab menejmenti

2. "Tamaddun" nominatsiyasi (pedagogika va gumanitar fanlar yo'nalishi)

№	Yo'nalish shifri	Ta'lim yo'nalishi nomi
1	60110100	Pedagogika
2	60110200	Maktabgacha ta'lim
3	60110500	Boshlang'ich ta'lim
4	60111100	Tarix
5	60112100	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
6	60112700	Maxsus pedagogika (faoliyat turlari bo'yicha)
7	60310900	Psixologiya (amaliy psixologiya)

3. "Iftixor" nominatsiyasi (filologiya fanlari yo'nalishi)

№	Yo'nalish shifri	Ta'lim yo'nalishi nomi
1	60111400	O'zbek tili va adabiyoti
2	60111500	Ona tili va adabiyoti (rus, qozoq va tojik tillari)
3	60111700	O'zga tilli guruhlarda rus tili
4	60111800	Xorijiy til va adabiyoti (ingliz va nemis tillari)
5	60112600	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)
6	61010500	Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili)

4. "E'tirof" nominatsiyasi (amaliy fanlar va turizm yo'nalishi)

№	Yo'nalish shifri	Ta'lim yo'nalishi nomi
1	60111200	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
2	60111300	Musiqqa ta'limi
3	60111900	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport
4	60112200	Jismoniy madaniyat (shu jumladan, xotin-qizlar sporti)
5	60112300	Texnologik ta'lim
6	61010100	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
7	61010400	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
8	61010600	Turizm sohasida xizmatlar texnologiyasi va ularni tashkil etish

Izoh: Ta'lim yo'nalishlari nomlari hamda shifr o'zgarganda, kengayganda yoki optimallashtirilganda ilovaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkin.

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti iqtidorli talabalarini rag'batlantirish
maqsadida o'tkaziladigan "Iqtidor" tanlovining baholash
INDIKATORLARI**

№	Baholash mezonlari	Ajratilgan ball
1	Sinov imtihon natijalari	50
2	Fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi <i>(foizga nisbatan proporsiya qilinadi)</i>	5
3	Ma'naviy-ma'rifiy tanlovlardagi ishtiroki <i>(kamida universitet miqyosida, har biri uchun 0,5 balldan)</i>	4
4	Ilmiy-innovatsion tanlovlardagi ishtiroki <i>(kamida universitet miqyosida, har biri uchun 1 balldan)</i>	5
5	Intellectual o'yinlar va kitobxonlik tanlovlari <i>(kamida universitet miqyosida, har biri uchun 1 balldan)</i>	5
6	"Scopus" va "Web of Science" bazalariga kiruvchi jurnallardagi maqolalar uchun <i>(har biri uchun 4 balldan)</i>	8
7	OAK tasarrufidagi jurnallarda chop etilgan maqolalar <i>(har bir maqola uchun 1 balldan)</i>	6
8	Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan konferensiya va anjumanlardagi ishtiroki <i>(har bir ish uchun 1 balldan)</i>	5
9	Mahalliy va xalqaro jurnallardagi maqolalar hamda tezislari uchun <i>(har bir maqola va tezis uchun 0,1 balldan)</i>	4
10	Ixtiro, patent hamda mualliflik loyihalariga egaligi <i>(har biri uchun 1 balldan)</i>	5
11	Boshqa yutuqlar	3
JAMI		100

Izoh:

1. Ajratiladigan ball maksimal hisoblanadi. Har bir indikator bo'yicha baholash belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.
2. Hammualliflikda amalga oshirilgan ishlar mualliflar soniga nisbatan hisoblanadi.
3. Mezonda belgilanmagan yutuqlar taqdim etilgan holda ishchi guruh tomonidan ball belgilanadi, lekin umumiy natija 100 balldan oshishi mumkin emas.